

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Tog‘-kon sanoati va geologiya
vaziri o‘rinbosari

_____ **A. Kadirxodjayev**

2023-yil “_____” _____

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining
Murojaatlar bo‘limi to‘g‘risidagi
NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Murojaatlar bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Kon-geologiya vazirligi) 2023-yil 30-yanvardagi 3-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan va Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi hisoblanadi.

2. Murojaatlar bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – bo‘lim) O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan kelib chiqib qonunchilik doirasida faoliyat yuritadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi to‘g‘risidagi Nizomga, Hay‘at qarorlariga, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi buyruqlari va farmoyishlariga, mehnat ichki tartib qoidalariga, jamoa shartnomasiga, boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga va mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Bo‘lim:

o‘z faoliyatini Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri rahbarligi ostida amalga oshiradi;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirining tegishli o‘rinbosarlariga bo‘ysinadi;

o‘z faoliyatini Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi markaziy apparatining boshqa tuzilmaviy bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqada amalga oshiradi;

5. Bo‘lim Vazirlikning tashkiliy tuzilmasi tarkibidagi korxona, muassasa va jamiyatlarning murojaatlar bo‘yicha ma‘lumotlarini umumlashtiradi, va o‘z vakolati doirasida tegishli tavsiyalar beradi.

II bob. Bo‘limning vazifalari, funksiyasi va majburiyatlari

6. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

geologiya sohasida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqishda shaffoflikni ta‘minlash va o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

elektron ish yuritish va hujjatlar aylanmasi tizimi asosida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o‘z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish va hisobga olish, ko‘rib chiqish, harakati va tahlilning yagona tizimini amalga oshirilishini ta‘minlash;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijrosini nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijrosini nazorat qilish va hisobga olish, qayd etish, harakati va tahlilining yagona tizimini takomillashtirish masalalarida Vazirlik tarkibiy bo‘linmalariga uslubiy yordam ko‘rsatish;

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-sonli Qonuniga va Vazirlikning “Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini vazirlik markaziy apparatida, shuningdek, uning korxonalarida o‘z vaqtida bajarilishi bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

yuqori turuvchi organlar (Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, va boshqa vazirliklar)dan kelib tushadigan hujjatlarni izchil o‘rganadi, vazirlik rahbariyati ust xati bilan muvofiqlikda ularning ijrosi nazoratini amalga oshiradi, Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatining tegishli boshqarma, bo‘lim boshliqlari va bosh mutaxassislaridan, shuningdek, bo‘linmalar boshliqlaridan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijrosi haqida tizimli ravishda ma‘lumotlar so‘rab boradi;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari choraklik tahlilini vazirlik rahbariyatiga taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini Kon-geologiya vazirligi tarkibiy bo‘linmalaridagi o‘rganish holati natijalarini vazir o‘rinbosariga ma‘lum qiladi, uning topshirig‘i bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan buyruq va farmoyishlar loyihalarini tayyorlaydi;

ogohlantiruvchi nazoratni tashkil etadi;

Vazirlik tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha sistematik ravishda tarkibiy bo'linmalarda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari o'rganilishi va holati nazoratini o'tkazadi, ularning natijalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish, harakati, tahlili va ijrosi nazoratining yagona tizimini takomillashtirish masalalarida uslubiy va amaliy yordam beradi;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari holati haqida o'tgan davr (chorak) uchun ma'lumotlarni tegishli shakl bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib boradi, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni Kon-geologiya vazirligi hay'atining choraklik yig'ilishlarida ko'rib chiqish va muhokama qilishga materiallar tayyorlash, ijrochilarning mas'uliyatini oshirish bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilish uchun taqdim etib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqishning o'rnatilgan muddatlarini buzilishiga yo'l qo'yan, bajarilishini o'z vaqtida ta'minlamagan, ijrosi va nazoratini past darajada tashkil etgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi shuningdek, vazirlik rahbariyatining qonunchilik hujjatlari, topshiriq va boshqa hujjatlarini ijrosini amalga oshirilishini nazorat qilmagan shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun rahbariyatga kiritadi.

7. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi. Jumladan " Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining korruptsiyaga qarshi siyosati", "Odob-axloq kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom", "Sovg'a berish va qabul qilish siyosati"ga to'liq amal qiladi, shuningdek ushbu me'yoriy hujjatlar talablari va ularda yuklatilgan majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olishi va kelajakda bu talablarni bajarmaganda javobgar bo'lishini anglashi;

o'z faoliyati davomida yuridik va jismoniy shaxslar yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora olishda vositachilik qilish, ulardan moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi, tashabbus ko'rsatish, ruxsat yoki va'da bermasligi;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasligi yoki tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etmasligi, ishtirokchisi yoki muassisi bo'lmasligi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarmasligi;

ish jarayonida ma'lum bo'lib qolgan huquqbuzarliklar to'g'risida bevosita rahbariyatga yoki Ichki nazorat boshqarmasiga zudlik bilan xabar beradi;

Shu bilan birga, xodimga chet davlat fuqaroligini olishga, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, ko'chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilish taqiqlanadi. Bundan chet davlatda ta'lim olish, stajirovka o'tash va tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar, shuningdek davlat fuqarolik xizmatiga kirishdan oldin olingan va oshkor qilingan mol-mulk olish mustasno.

8. Bo'lim o'z vakolatlari doirasida quyidagilarda ishtirok etadi:

Kon-geologiya vazirligi tasarrufidagi korxonalarning faoliyatida Bo'lim bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda;

Kon-geologiya vazirligi hay'atida ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlashda;

Bo'lim faoliyati bo'yicha Kon-geologiya vazirligining buyruqlari va buyruqlari loyihalarini tayyorlash va ularning bajarilishini nazorat qilishda;

o'z vakolati doirasida Kon-geologiya vazirligining faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda takliflar berish.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

9. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

geologiya sohasida murojaatlar bo'yicha qonunchilik hujjatlari buzilgan taqdirda vazir yoki uning tegishli o'rinbosariga belgilangan tartibda bildirgilarni kiritish;

belgilangan tartibda Kon-geologiya vazirligi tasarrufidagi korxonalardan murojaatlar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish va tayyorlash uchun tegishli materiallar va ma'lumotlarni tayyorlashlari va taqdim etishlari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida topshiriqlar berish;

Kon-geologiya vazirining o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda, murojaatlar bo'yicha vazirlik tasarrufidagi korxonalar rahbarlari va vakillari ishtirokida seminarlar va uchrashuvlar tashkil etish;

zarur bo'lganda, belgilangan tartibda Kon - geologiya vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalarni, vazirlikning boshqa tarkibiy bo'linmalari va tasarrufidagi davlat korxonalari rahbarlarini, vakillarini jalb etish, tegishli masalalar bo'yicha vaqtinchalik ishchi guruhlar tuzish;

10. Bo'lim quyidagilar uchun javobgardir:

o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish;

Kon-geologiya vazirligiga kiritilgan takliflar va masalalarni yuqori sifatli ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish;

bo'lim mutaxassislarining javobgarlik darajasi lavozim yo'riqnomalari bo'yicha belgilanadi.

Kon-geologiya vazirligining markaziy apparati boshqarma va bo'limlarida, shuningdek, tarkibiy bo'linmalarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlarni olib borish to'g'riligini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan yo'riqnomalar, nizomlar, boshqa uslubiy va me'yoriy materiallar loyihalarini ishlab chiqish va rahbariyatga taqdim etish.

4-bob. Bo'limning tuzilishi

11. Bo'limning tarkibi va shtati Kon-geologiya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

12. Bo'lim ishlarini boshliq nazorat qiladi.

13. Bo'lim tegishli vazir o'rinbosariga bo'ysunadi.

14. Bo'lim boshlig'i va mutaxassislari Kon-geologiya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5-bob. Bo'lim ishini tashkil qilinishi

15. Bo'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatiga oid nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga, mazkur Nizomga, Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatida ish yuritish bo'yicha ko'rsatmalariga, Kon-geologiya vaziri va uning ko'rsatmalariga, shuningdek, vazirlikning ish rejalari, bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassislarning lavozim yo'riqnomalari asosida tashkil etiladi;

Bo'lim boshlig'ining lavozim yo'riqnomasi Kon-geologiya vazirining tegishli o'rinbosari va yuridik bo'lim bilan kelishilib, Kon-geologiya vaziri tomonidan tasdiqlanadi;

a) Bo'lim boshlig'i:

bo'limga bevosita rahbarlik qiladi, bo'lim ishlarini tashkil qiladi, bo'limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi va ijro intizomi holati uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

bo'lim xodimlaridan Kon-geologiya vaziri va uning o'rinbosarlari topshiriqlari hamda ko'rsatmalarini, hay'at qarorlarini, vazirlikning buyruqlarida keltirilgan tegishli bandlar ijrosini o'z vaqtida bajarilishini talab qiladi;

Kon-geologiya vazirligiga taqdim etilgan Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqadi, ushbu loyihalarni kelishadi;

Vazirlik hay'at majlislarida, Vazir va uning o'rinbosarlari bilan alohida yig'ilishlarda, Bo'lim vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-texnik kengash majlislarida qatnashadi;

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Vazirlik markaziy apparatida amalda bo'lgan yo'riqnomaga muvofiq ish yuritishini ta'minlaydi;

Bo'lim faoliyatini takomillashtirish, xodimlarning ishbilarmonlik mahoratini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

bosh mutaxassislarni rag'batlantirish yoki unga jazo tayinlash to'g'risida takliflarni Kon-geologiya vaziri va uning o'rinbosariga taqdim etadi;

bo'lim boshlig'i vaqtincha ishda bo'lmaganda, uning vazifasini bosh mutaxassislardan biriga yuklatiladi.

b) bo'limning bosh mutaxassisi:

o'ziga yuklatilgan masalalar bo'yicha materiallar va hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi, o'z vaqtida tayyorlanishi, materiallarni o'rganish sifati uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

tegishli masalalar bo'yicha ma'lumotlar hisobini yaratish va yuritish, uni muntazam yangilab turishni tashkil etadi;

Kon-geologiya vaziri va uning o'rinbosarlariga, boshqarma va bo'lim boshliqlariga yo'nalish bo'yicha tegishli materiallarni tayyorlaydi va taqdim etadi;

o'ziga yuklatilgan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtiradi, zarur tahliliy materiallarni tayyorlaydi;

Kon-geologiya vazirligining o'ziga yuklatilgan masalalar bo'yicha hay'at majlislarida, Vazir va uning o'rinbosarlari yig'ilishlarida belgilangan tartibda qatnashadi.

16. Bo'lim bosh mutaxassisining javobgarlik darajasi lavozim yo'riqnomasiga muvofiq belgilanadi.

17. Bo'limni tuzilishi, shuningdek uni qayta tashkil etish yoki tugatish O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Murojaatlar bo‘limi boshlig‘i

A. Jamolov

Kelishildi:

**Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish bo‘limi boshlig‘i**

Z. Karimjonov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

A. Nurkuziyev